



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№6

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

6-jild
6-son
Iyun, 2026

June, 2026
Volume 6
Number 6

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
Economy of the region and industry
Экономика региона и отрасли



MINTAQAVIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH MEKANIZMLARI

Qodirova Mohinur Bahodir qizi

МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА НА ОСНОВЕ ПОВЫШЕНИЯ РЕГИОНАЛЬНОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ

Кодирова Мохинур Баходир кизи

MECHANISMS FOR ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH THROUGH ENHANCING REGIONAL COMPETITIVENESS

Qodirova Mohinur Bahodir qizi

Received: June 8, 2026 Revised: June 9, 2026 Accepted: June 11, 2026 Published: June 30, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shirish ta’minlashning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda mintaqalarning raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi iqtisodiy, institutsional, investitsion va innovatsion omillar tahlil qilinib, ularning hududiy iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro bog‘liqligi baholangan. Shuningdek, mintaqaviy raqobatbardoshlik darajasini oshirish orqali iqtisodiy o‘shir sur‘atlarini jadallashtirish imkoniyatlari aniqlangan hamda mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar taklif etilgan. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik-guruhlash, iqtisodiy tahlil va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. Olingan natijalar mintaqalarda investitsion jozibadorlikni oshirish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish va hududiy resurslardan oqilona foydalanish orqali barqaror iqtisodiy o‘shirishni ta’minlash imkonini beruvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: mintaqaviy raqobatbardoshlik, barqaror iqtisodiy o‘shirish, hududiy rivojlanish, investitsion jozibadorlik, innovatsiyalar, iqtisodiy samaradorlik, raqobat ustunligi, mintaqaviy siyosat.

Аннотация: В данной статье исследованы теоретико-методологические основы и практические аспекты обеспечения устойчивого экономического роста на основе повышения региональной конкурентоспособности. В ходе исследования проведён анализ экономических, институциональных, инвестиционных и инновационных факторов, оказывающих влияние на уровень конкурентоспособности регионов, а также оценена их взаимосвязь с показателями регионального социально-экономического развития. Особое внимание уделено выявлению возможностей ускорения темпов экономического роста посредством повышения конкурентоспособности территорий и разработке организационно-экономических механизмов, направленных на решение существующих проблем регионального развития. В исследовании использованы методы системного подхода, сравнительного анализа, статистической группировки, экономического анализа и научного обобщения. Полученные результаты позволили разработать научно-практические рекомендации по повышению инвестиционной привлекательности регионов, стимулированию инновационной деятельности, росту эффективности производства и рациональному использованию территориальных ресурсов. Реализация предложенных механизмов будет способствовать укреплению конкурентных преимуществ регионов и обеспечению устойчивого экономического роста в долгосрочной перспективе.

Ключевые слова: региональная конкурентоспособность, устойчивый экономический рост, региональное развитие, инвестиционная привлекательность, инновации, экономическая эффективность, конкурентные преимущества, региональная политика.



Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations as well as the practical aspects of ensuring sustainable economic growth through enhancing regional competitiveness. The study analyzes the economic, institutional, investment, and innovation factors affecting the level of regional competitiveness and assesses their relationship with indicators of regional socio-economic development. Particular attention is paid to identifying opportunities for accelerating economic growth by strengthening regional competitiveness and developing organizational and economic mechanisms aimed at addressing existing regional development challenges. The research employs a systematic approach, comparative analysis, statistical grouping, economic analysis, and scientific generalization methods. The findings provide a basis for developing practical recommendations to increase regional investment attractiveness, stimulate innovation activities, improve production efficiency, and ensure the rational use of regional resources. The implementation of the proposed mechanisms is expected to strengthen the competitive advantages of regions and contribute to sustainable economic growth in the long term.

Keywords: regional competitiveness, sustainable economic growth, regional development, investment attractiveness, innovation, economic efficiency, competitive advantage, regional policy.

■ KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro raqobatning kuchayishi va resurslardan samarali foydalanish zarurati mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish masalalariga bo'lgan e'tiborni yanada oshirmoqda. Zamonaviy sharoitda mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati nafaqat makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, balki hududlarning raqobatbardoshlik darajasi, investitsion jozibadorligi, innovatsion faolligi va iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda hududlarning raqobat ustunliklarini shakllantirish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish va institutsional muhitni takomillashtirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishilmoqda. Bunda mintaqalarning ichki imkoniyatlarini safarbar etish, iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlarni rivojlantirish muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Natijada hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash va turmush farovonligini oshirish imkoniyatlari kengaymoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda hududlarni kompleks rivojlantirish, ularning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq ayrim mintaqalarda ishlab chiqarish samaradorligining pastligi, iqtisodiyotning xomashyo yo'nalishiga yuqori darajada bog'liqligi, innovatsion faollikning yetarli emasligi hamda investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligining pastligi hududiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlashda muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa mintaqaviy raqobatbardoshlikni baholash, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Mintaqaviy raqobatbardoshlik va barqaror iqtisodiy o'sish masalalari iqtisodiyot fanida eng ko'p tadqiq etilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu

konsepsiyaning nazariy asoslari M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, olim hududlarning raqobatbardoshligini ishlab chiqarish omillari, talab sharoitlari, turdosh va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar hamda korxonalar strategiyasi va raqobat muhiti orqali izohlaydi. Porterning fikricha, hududlarning uzoq muddatli iqtisodiy muvaffaqiyati ularning innovatsiyalarni joriy etish va yuqori unumdorlikni ta'minlash qobiliyatiga bog'liqdir¹.

P.Krugman esa hududiy raqobatbardoshlikni iqtisodiy geografiya nuqtayi nazaridan tadqiq qilib, iqtisodiy o'sishning asosiy omillari sifatida aglomeratsiya samaralari, transport xarajatlari va ishlab chiqarishning hududiy konsentratsiyasini ko'rsatadi². Uning tadqiqotlarida hududlarning iqtisodiy rivojlanishi ishlab chiqarish resurslarining makon bo'yicha taqsimlanishi bilan uzviy bog'liq ekanligi asoslab berilgan.

Keyingi yillarda mintaqaviy raqobatbardoshlikni baholashga bag'ishlangan tadqiqotlarda raqobatbardoshlikning ko'p omilli tabiati alohida ta'kidlanmoqda. Grassia, Marino, Mazza va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan bibliometrik tahlilda mintaqaviy raqobatbardoshlikning asosiy determinantlari sifatida inson kapitali, innovatsion salohiyat, infratuzilma sifati, institutsional rivojlanish va investitsion muhit omillari ajratib ko'rsatilgan³. Mualliflar mintaqaviy raqobatbardoshlik iqtisodiy natijalar bilan bir qatorda aholi farovonligi va turmush sifati ko'rsatkichlarini ham o'z ichiga olishini ta'kidlaydilar.

Kouskoura, Kalliontzi, Skalkos va Bakourosning 2024-yilda chop etilgan tadqiqotida mintaqaviy raqobatbardoshlikning barqaror rivojlanish bilan o'zaro bog'liqligi o'rganilgan. Tadqiqotchilar zamonaviy sharoitda hududiy raqobat ustunliklari innovatsion faoliyat, yashil texnologiyalar, inson kapitali va institutsional samaradorlik orqali shakllanishini asoslab berganlar⁴.

So'nggi tadqiqotlarda iqtisodiy murakkablik (economic complexity) konsepsiyasi ham mintaqaviy raqobatbardoshlikning muhim omili sifatida qaralmoqda. Balland va hamkorlar iqtisodiy murakkablik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlar rivojlanishi natijasida iqtisodiy o'sish sur'atlari tezlashishini ko'rsatganlar⁵. Shu bilan birga, iqtisodiy murakkablik mintaqaning innovatsion salohiyatini oshirish va investitsiyalarni jalb etishda muhim omil sifatida e'tirof etiladi.



O'zbekistonda hududiy rivojlanish va mintaqaviy raqobatbardoshlik masalalari bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, S.S. G'ulomov, A.V. Vahobov, B.X.Xodiyev, N.K.Yo'ldoshev va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida hududiy iqtisodiy rivojlanish, investitsion jozibadorlik, iqtisodiy salohiyat va hududiy boshqaruv samaradorligi masalalari yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda hududiy rivojlanishning asosiy omillari sifatida investitsiyalar hajmi, sanoatning diversifikatsiyalashuvi, kichik biznes va tadbirkorlik rivoji hamda infratuzilma holati ko'rsatib o'tilgan.

So'nggi yillarda O'zbekiston hududlarining raqobatbardoshligini baholashga bag'ishlangan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Abdusalomov tomonidan 2015–2023-yillar kesimida amalga oshirilgan tadqiqotda hududiy raqobatbardoshlik indeksi ishlab chiqilib, iqtisodiy samaradorlik, ta'lim, infratuzilma va mehnat bozori samaradorligi hududlar raqobatbardoshligining asosiy tarkibiy qismlari sifatida baholangan⁶. Tadqiqot natijalariga ko'ra, hududlar o'rtasida raqobatbardoshlik darajasi bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjud bo'lib, bu holat mintaqaviy siyosatni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy raqobatbardoshlik va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik yetarli darajada o'rganilgan bo'lsa-da, hududlarning o'ziga xos resurs salohiyati, iqtisodiy tarkibi va institutsional xususiyatlarini hisobga olgan holda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish masalalari hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyati kabi tabiiy-resurs salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda mintaqaviy raqobatbardoshlikning iqtisodiy o'sishga ta'sirini kompleks baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy zaruratini belgilab beradi.

■ TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda mintaqaviy raqobatbardoshlikning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. O'zbekiston Respublikasi va Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari asosida mintaqaviy raqobatbardoshlik omillari tahlil qilinib, ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqildi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash zamonaviy iqtisodiy nazariyada hududlarning ichki iqtisodiy salohiyatini samarali safarbar etish, ishlab chiqarish omillaridan oqilona foydalanish hamda uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan institutsional va iqtisodiy mexanizmlar tizimi sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, mintaqaviy iqtisodiy o'sish faqat makroiqtisodiy siyosat natijasi emas, balki hududlarning raqobat ustunliklari, innovatsion imkoniyatlari va resurslardan foydalanish samaradorligi bilan bevosita bog'liq jarayon hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda mintaqaviy raqobatbardoshlik konsepsiyasi asosan M. Porterning raqobat ustunligi nazariyasi, P. Krugmanning yangi iqtisodiy geografiya yondashuvi hamda endogen o'sish nazariyasi doirasida rivojlantirilgan. Ushbu nazariyalarga muvofiq, hududlarning iqtisodiy rivojlanishi tashqi omillarga emas, balki ichki omillar — inson kapitali, innovatsion faollik, texnologik daraja va institutsional muhit sifatiga tayanadi.

Mintaqaviy raqobatbardoshlikni shakllantirishda investitsion jozibadorlik, ishlab chiqarish infratuzilmasi, mehnat resurslarining sifati hamda iqtisodiyotning diversifikatsiya darajasi muhim omillar sifatida ajralib turadi. Shu bilan birga, klaster yondashuvi hududiy iqtisodiy tizimda korxonalar, ilmiy-tadqiqot muassasalari va davlat institutlari o'rtasidagi o'zaro integratsiyani kuchaytirib, innovatsion jarayonlarni tezlashtirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot va yashil iqtisodiyot konsepsiyalari ham mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omillariga aylangan. Raqamli transformatsiya iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini oshirsa, yashil iqtisodiyot resurslardan oqilona foydalanish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu omillar mintaqalarning global va milliy iqtisodiy tizimdagi o'rnini kuchaytiradi.

Qashqadaryo viloyati misolida ushbu jarayonlarni tahlil qilish alohida ahamiyatga ega, chunki viloyat katta tabiiy-resurs salohiyatiga ega bo'lishiga qaramasdan, uning raqobatbardoshlik darajasi va iqtisodiy o'sish sur'atlari mavjud imkoniyatlarga nisbatan to'liq amalga oshirilmaganligini ko'rsatadi. Shu sababli, mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmlarini chuqur tahlil qilish va ularning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatining mintaqaviy raqobatbardoshligi va iqtisodiy o'sish indikatorlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2025-yil	Izoh
Hududiy YAIM o'sish sur'ati	%	6,2	Barqaror iqtisodiy o'sish
Sanoat ishlab chiqarishi o'sishi	%	5,8	Ishlab chiqarish kengayishi
Asosiy kapitalga investitsiyalar	mlrd so'm	28 450	Investitsion faollik yuqori
Eksport hajmi	mln AQSh dollari	1 320	Tashqi savdo integratsiyasi
Bandlik darajasi	%	74,5	Mehnat bozori samaradorligi



Yuqoridagi jadvalda Qashqadaryo viloyatining 2025-yildagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari asosida mintaqaviy raqobatbardoshlik va barqaror iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilingan. Ushbu indikatorlar hudud iqtisodiyotining real sektor, investitsion faollik, tashqi savdo integratsiyasi hamda mehnat bozori samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi.

Avvalo, hududiy yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning 6.2 foizga o'sishi Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy faollikning barqaror ijobiy dinamikaga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich mintaqada ishlab chiqarish hajmining kengayishi hamda iqtisodiy resurslardan nisbatan samarali foydalanilayotganini anglatadi. Biroq bu o'sish sur'ati yuqori qo'shilgan qiymatli sektorlar hisobiga emas, balki asosan an'anaviy tarmoqlar hisobiga shakllanayotgan bo'lishi mumkinligi strukturaviy tahlilni talab etadi.

Sanoat ishlab chiqarishining 5.8 foizga o'sishi hududda industrial bazaning kengayib borayotganini bildiradi. Shu bilan birga, ushbu o'sish sur'ati YAIM o'sishidan biroz past bo'lishi sanoatning iqtisodiy o'sishdagi yetakchi drayver sifatidagi rolini to'liq kuchaymaganligini ko'rsatadi. Bu holat sanoat tarmoqlarida texnologik modernizatsiya va diversifikatsiya darajasini oshirish zarurligini anglatadi.

Investitsiyalar hajmining 28 450 mlrd so'mga yetishi mintaqaning investitsion jozibadorligi sezilarli darajada oshganidan dalolat beradi. Empirik iqtisodiy nazariyaga muvofiq, investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy determinantlaridan biri hisoblanadi. Ushbu holatda investitsion faollikning yuqoriligi YAIM o'sishi bilan ijobiy korrelyatsion bog'liqlik mavjudligini

ko'rsatadi va mintaqaviy rivojlanishning kapitalga tayanayotgan modelini ifodalaydi.

Eksport hajmining 1 320 mln AQSh dollariga yetishi viloyatning tashqi iqtisodiy aloqalar tizimiga integratsiyalashuvi kengayib borayotganini bildiradi. Biroq eksport tarkibining tahlili shuni ko'rsatadiki, mahsulotlarning sezilarli qismi xomashyo va past darajadagi qayta ishlash mahsulotlariga to'g'ri kelishi mumkin, bu esa mintaqaning global qiymat zanjiridagi o'rnini cheklaydi.

Bandlik darajasining 74.5 foiz bo'lishi mehnat bozorida nisbatan barqaror holat mavjudligini anglatadi, biroq bu ko'rsatkich mehnat resurslarining to'liq bandligini ta'minlamaganini ham ko'rsatadi. Demak, hududda ish o'rinlarini yaratish va mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha institutsional choralar zarur.

Umuman olganda, jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida mintaqaviy raqobatbardoshlikning asosiy omillari — investitsiyalar va ishlab chiqarish faolligi — iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlamogda. Shu bilan birga, innovatsion rivojlanish darajasi, sanoatning texnologik tarkibi va eksportning diversifikatsiyasi yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli barqaror raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun qo'shimcha islohotlar zarur.

2025-yilda Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy rivojlanishning ijobiy tendensiyalari kuzatilgan bo'lib, bu holat mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish uchun muayyan shart-sharoitlar shakllanayotganidan dalolat beradi. Jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar orasida eng yuqori o'sish sur'ati xizmatlar sohasiga (113,0%) to'g'ri kelmoqda.

2-jadval

Qashqadaryo viloyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari (2025-yil, o'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda)

Ko'rsatkich	2025-yil (%)
Yalpi hududiy mahsulot (yanvar–iyun)	105,9
Sanoat ishlab chiqarishi	107,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	104,1
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	102,9
Qurilish ishlari	102,7
Chakana tovar aylanmasi	108,2
Xizmatlar hajmi	113,0
Tashqi savdo aylanmasi (yanvar–avgust)	88,2
Eksport	101,6

Ushbu holat hudud iqtisodiyotida xizmatlar sektorining ulushi ortib borayotganligini hamda iqtisodiy tarkibning bosqichma-bosqich diversifikatsiyalanayotganligini ko'rsatadi. Iqtisodiy

nazariyaga ko'ra, xizmatlar sektorining rivojlanishi hududning innovatsion faolligi, tadbirkorlik muhiti va inson kapitali sifati bilan bevosita bog'liq bo'lib,



mintaqaviy raqobatbardoshlikning muhim indikatorlaridan biri hisoblanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining 107,0 foizga o'sishi viloyatda ishlab chiqarish salohiyatining kengayib borayotganligini anglatadi. Ayniqsa, sanoat tarmog'idagi o'sish hududning investitsion jozibadorligi va iqtisodiy faolligi ortayotganligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, sanoat o'sish sur'ati xizmatlar sohasi o'sishidan past bo'lgani sababli sanoatning yuqori texnologiyali yo'nalishlarini rivojlantirish va ishlab chiqarishning innovatsion komponentini kuchaytirish zarurati saqlanib qolmoqda. Chunki xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, hududlarning uzoq muddatli raqobatbardoshligi asosan yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan sanoat tarmoqlari bilan belgilanadi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari hajmining 104,1 foizga o'sishi agrar sektor viloyat iqtisodiyotida muhim o'rin tutayotganligini ko'rsatadi. Biroq mazkur ko'rsatkich sanoat va xizmatlar sohalariga nisbatan pastroq o'sayotganligi iqtisodiyot tarkibida tarkibiy transformatsiya jarayonlari yuz berayotganini anglatadi. Bu esa hudud iqtisodiyotining an'anaviy tarmoqlardan zamonaviy va yuqori samaradorlikka ega faoliyat turlariga o'tish tendensiyasini ifodalaydi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 102,9 foizga o'sishi hududda investitsion faollikning ijobiy dinamikasini aks ettiradi. Biroq investitsiyalar o'sish sur'atining sanoat va xizmatlar sektori o'sishidan pastligi investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish zarurligini ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sish nazariyasiga muvofiq, investitsiyalar hajmidan ko'ra ularning tarkibi va yo'naltirilgan sohalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli investitsiyalarni innovatsion loyihalar, qayta ishlash sanoati va raqamli texnologiyalar sohasiga yo'naltirish mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Qurilish ishlari hajmining 102,7 foizga ortishi hududda infratuzilma rivojlanishi davom etayotganligini ko'rsatadi. Infratuzilmaning rivojlanganligi esa iqtisodiy faoliyat xarajatlarini kamaytirish, logistika tizimini takomillashtirish va yangi investitsiyalarni jalb etish orqali hududning raqobat ustunliklarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Chakana tovar aylanmasining 108,2 foizga o'sishi aholi daromadlari va iste'mol faolligi ortib borayotganligini anglatadi. Mazkur ko'rsatkich ichki talabning kengayib borayotganidan dalolat berib, iqtisodiy o'sishning muhim ichki manbalaridan biri hisoblanadi. Ichki talabning ortishi ishlab chiqarish va xizmatlar hajmining kengayishiga multiplikativ ta'sir ko'rsatadi.

Tashqi savdo aylanmasining 88,2 foizni tashkil etishi tashqi iqtisodiy faoliyatda ma'lum qisqarish mavjudligini ko'rsatadi. Biroq eksport hajmining 101,6 foizga o'sishi viloyatning eksport salohiyati saqlanib qolayotganligini bildiradi. Ushbu holat tashqi savdo tarkibini diversifikatsiya qilish, eksport geografiyasini kengaytirish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlari sifatida xizmatlar sohasi, sanoat ishlab chiqarishi va iste'mol bozorining

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

faollashuvi namoyon bo'layotganligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, investitsiyalar samaradorligini oshirish, sanoatning texnologik modernizatsiyasini jadallashtirish hamda eksport tarkibini diversifikatsiya qilish mintaqaviy raqobatbardoshlikni kuchaytirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Qashqadaryo viloyatida mintaqaviy raqobatbardoshlikning asosiy omillari sifatida investitsion faollik, sanoat ishlab chiqarishi, xizmatlar sohasi rivoji va eksport salohiyati muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Tahlillar mintaqaviy raqobatbardoshlik darajasining oshishi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

Shundan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish;
- innovatsion va raqamli texnologiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushini oshirish;
- eksport tarkibini diversifikatsiya qilish hamda qayta ishlangan mahsulotlar ulushini kengaytirish;
- inson kapitalini rivojlantirish orqali mehnat unumdorligini oshirish.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi Qashqadaryo viloyatining raqobatbardoshligini mustahkamlash, investitsion jozibadorligini oshirish va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
2. Krugman P. Geography and Trade. – Cambridge, MA: MIT Press, 1991. – 142 p.
3. Camagni R. Regional Competitiveness: Towards a Concept of Territorial Capital // Regional Studies. – 2008. – Vol. 42(2). – P. 239–255.
4. Martin R. Regional Competitiveness: From Theory to Practice // Handbook of Regions and Competitiveness. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2011. – P. 3–32.
5. Kitson M., Martin R., Tyler P. Regional Competitiveness: An Elusive yet Key Concept? // Regional Studies. – 2004. – Vol. 38(9). – P. 991–999.
6. Kouskoura A., Kalliontzis E., Skalkos D., Bakouras I. Assessing the Key Factors Measuring Regional Competitiveness // Sustainability. – 2024. – Vol. 16(6). – Article 2574.
7. Grassia M.G., Marino M., Mazza R., Misuraca M. Regional Competitiveness: A Structural-Based Topic Analysis on Recent Literature // Social Indicators Research. – 2024. – Vol. 173. – P. 83–108.
8. Balland P.A., Boschma R., Crespo J., Rigby D. Economic Complexity and the Dynamics of Regional Competitiveness // Competitiveness Review. – 2023. – Vol. 33(4). – P. 711–744.



9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son Farmoni. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida.

11. G‘ulomov S.S. Milliy iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 496 b.

12. Vahobov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Mintaqaviy iqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 352 b.

13. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Barkamol Fayz Media, 2023. – 688 b.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Qodirova Mohinur Bahodir qizi QDTU magistranti / Кодирова Мохинур Баходир кизи магистрант Кашкадарьинского государственного технического университета (КГТУ) / Qodirova Mohinur Bahodir qizi Master’s Student, Kashkadarya State Technical University (KSTU)

E-mail: mohinurbahodirovna9@gmail.com

ORCID: 0009-0005-7262-233X



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz